

# O'rta qavatli turar-joy binolarini tadqiq etish va innovatsion loyihaviy takliflar ishlab chiqish (Urganch shahri misolida)

Shokir Alisherovich Bekchonov

Ilmiy rahbar: Mavluda Bahriyevna Xudoyarova  
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada o'rta qavatli turar-joy binolarini tadqiq etish va innovatsion loyihaviy takliflar ishlab chiqish va shu navbatda turar-joy binolarini tipologik yechimlarini ham yoritib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** chegaraviy qavatlik, proezd, liftsiz, parametrlari, kvartiradagi xonalar, shahasozlik, o'rta qavatli

## Research of medium-rise residential buildings and development of innovative project proposals (in the example of the city of Urganch)

Shakir Alisherovich Bekchonov

Scientific supervisor: Mavluda Bahriyevna Khudoyarova  
Samarkand State University of Architecture and Construction

**Abstract:** The research of medium-rise residential buildings and the development of innovative project proposals, as well as the typological solutions of residential buildings, were covered in the article.

**Keywords:** border floor, proezd, without elevator, parameters, rooms in an apartment, town planning, middle floor

Chegaraviy qavatlik bo'yicha liftsiz yashash uylari piyoda (yayov) chiqish balandligi 12,5 bo'lgan maksimal balandlikka rejalashtiriladi. Piyoda chiqish masofasi (balandligi) uy oldidagi trotuar sathidan oxirgi qavat uyiga kirish sathi bilan o'lchanadi. Proezd bilan qo'shilgan trotuar sathi birinchi qavat sathidan - 1m quyida joylashadi, asosiy yashash qavatining balandligi 3m (poldan - polgacha), maksimal qavatlar soni 5 ta deb aniqlanadi ( $3 \times 4 + 1 = 13,0m$ ). Agar 5 - qavat kvartiralarini "pent - xauz" tipining sathi bo'yicha ikkita sathda yechilgan bo'lsa, u holda liftsiz holatda 6 - qavatni (yashash uyini) ham loyihalash mumkin bo'ladi. Lekin bunday qilish taqozo etilmaydi, chunki issiq davrlar (iyul + avgust)da inson hayotiy faoliyatining fiziologik parametrlari bo'yicha optimal (maqbul) qavatlilik uch qavat bo'ladi. Demak, 4 - qavatli yangi komfortli uylar liftga ega bo'lishi taqozo etiladi. Rejaviy sxemalar bo'yicha turar

- joy binolari quyidagicha loyihalaniishi mumkin:




a) seksiyali - barcha kvartiralar qavatlar bo'yicha vertical piyoda yurish kommunikatsiyasi - lift atrofida guruhlantiriladi, bunda kvartiralar dahlizi oldida bitta yoki ikkita kirish maydonchasi ko'zda tutiladi;

b) galereyali va koridorli - kvartiralardan zinapoya kletkasiga chiqish qavatlar bo'yicha joylashtirilgan umumiy foydalanishdagi galereyalar yoki koridorlar orqali amalga oshiriladi;

v) evakuatsiyani amalga oshirishning qo'shma sxemasi: galereyali - seksiyali yoki koridorli - seksiyali, bunda galereya yoki koridorlarning qisqa uzunlikli bo'lishlaridan foydalaniladi. Bunday qisqa bo'limlar bitta zinapoyaga ko'proq kvartiralarning to'g'ri kelishini ta'minlaydi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, galereyalar ham koridorlar ham qandaydir maydonni egallashi tayin, bu maydon seksiyali binolardagi bitta zinapoyalardan ancha ko'p bo'lgan maydonni tashkil etadi. Shuning uchun turar - joy binolarining seksiyali sxemasi (ya'ni a sxema) iqtisodiy jihatdan samarador bo'lib qolaveradi. Rejalarning galereyali - seksionli va koridorli - seksiyali sxemalari baland ya'ni ko'p qavatli liftga ega bo'lgan turar - joy binolari uchun juda qulaydir.

Quyidagi 1-jadvalda turar-joy binolarining universal (cheksiz, erkin), keng (qisman cheklangan), meridional (cheklangan) ufq yo'nalishi bo'yicha joylashish mumkinligi, Xonadonlar soni va kvartiradagi xonalar soni berilgan.

1-jadval

<b>Blok seksiyali turar-joy binolarini ufq yo'nalishi bo'yicha joylashtirish</b>				
<b>ufq yo'nalishi bo'yicha joylashtirish</b>	<b>blok seksiyali bo'linma</b>	<b>Asosiy tarz(fasad)ning ufq yo'nalishi bo'yicha joylashishi</b>	<b>Xonadonlar soni</b>	<b>kvartiradagi xonalar soni</b>
universal (cheksiz, erkin)		janub, Sharq, G'arbiy, Shimol	1;2; 4-8	2-3
keng (qisman cheklangan)		janubi-sharqiy, janubi-g'arbiy, shimoliy, IV ta iqlim mintaqasi uchun - janub	3-7	1-2
meridional (cheklangan)		sharq, g'arbiy, 4 iqlim mintaqasi uchun - janub, shimol	5-8 16 gacha	1-2
<b>Ufqning ikki tomoniga yo'naltirilgan kvartiralar bilan</b>				

O'rta qavatli turar-joy binolarining 2-jadvalda shahasoqlikda bino rejaviy yechimida bloklangan rejaviy kompozitsiyada chekka qismiga qo'shimcha ulash orqali bir va ikkala tomoniga ham ulash imkoni mavjud. Undan tashqari surilgan blokli

yechimda ham ikkala tomondan ulash imkoni yaratilgan.









2-jadval

Bo'linma turlari	Burchak aylamishlari	Blok chekkalari	Qavatlardagi kvartiralar soni				
			1-2	3	4	5 dan ko'p	
Bir chiziq bo'ylab	chekkali	1	1				
	chekkasiz	1	2				
		1	2				
<p><b>shartli belgilar:</b>                      Y - universal yo'nalish bo'limi                      YO(III) - qisman cheklangan (kenglik) yo'nalishi bo'limi                      O(M) - cheklangan (meridial) orientatsiya bo'limi</p>							

O'rtta qavatli turar-joy binolarining 3-jadvalda shahasoqlikda bino rejaviy yechimida bloklangan rejaviy kompozitsiyada burchakli yechimda binoni aylantirish imkoni mavjud bo'lib, chekka qismiga qo'shimcha ulash orqali bir va ikkala tomoniga ham ulash imkoni mavjud.













3-jadval

Bo'linma turlari	Burchak aylamishlari	Blok chekkalari	Qavatlardagi kvartiralar soni				
			1-2	3	4	5 dan ko'p	
Aylangan	chekkasiz	1	1				
<p>ichki burchakdagi zinapoyalar</p>							

	tashqi burchakdagi zinapoyalar	1	2	 y	 ЧО (Ш)	 ЧО (Ш)	 О (М)
		1	2	 y	 ЧО (Ш)	 ЧО (Ш)	 О (М)
<p><b>shartli belgilar:</b>                  Y - universal yo'nalish bo'limi                  ЧО(Ш) - qisman cheklangan (kenglik) yo'nalishi bo'limi                  О(М) - cheklangan (meridial) orientatsiya bo'limi</p>							

O'rtta qavatli turarajoy binolarining 4-jadvalda shahasoqlikda bino rejaviy yechimida bloklashgan rejaviy kompozitsiyada burchakli yechimda binoni aylantirish imkoni mavjud bo'lib, chekka qismiga qo'shimcha bir va ikkala tomoniga ham ulash imkoni mavjud.

4-jadval

Bo'linma turlari		Burchak avlonichlari	Blok chekkalari	Qavatlardagi kvartiralar soni			
				1-2	3	4	5 dan ko'p
Aylangan	chekkasiz	90°-135° va boshqa	1	 y	 ЧО (Ш)	 ЧО (Ш)	 О (М)
	ichki burchakdagi zinapoyalar		2	 y	 ЧО (Ш)	 ЧО (Ш)	 О (Ш)
	Uch nurli	90°	3	 y	 ЧО (Ш)	 ЧО (Ш)	 О (Ш)
<p><b>shartli belgilar:</b>                  Y - universal yo'nalish bo'limi                  ЧО(Ш) - qisman cheklangan (kenglik) yo'nalishi bo'limi                  О(М) - cheklangan (meridial) orientatsiya bo'limi</p>							

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маклакова Т.Т. Функция, конструкция, композиция в архитектуре.

Учебник. М.: АСВ, 2002. - 256 с.

2. Валиев Р. М., Эсенов А. Е. Некоторые вопросы оздоровления гордских среди в условиях Узбекистана, Строительство и архитектурно Узбекистана, 1979, № 9.-14-15 с.

3. Убайдуллаев Х.М., Иногамов М.М., Тураржой ва жамоат биноларини лойҳалашнинг типологик асослари (дарслик)Т. «Ворис»2009 й.